

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

NABIYEV SHUXRAT AXMADJANOVICH

**NOFILOLOGIK YO'NALISHDAGI O'ZBEK GURUHLAR
TALABALARIDA RUS TILI BO'YICHA NUTQ KOMPETENSIYALARINI
GRAMMATIK MODELLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contens of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Nabiyev Shuxrat Akhmadjanovich

Nofilologik yo'nalishdagi o'zbek guruhlar talabalarida rus tili bo'yicha nutq kompetensiyalarini grammatik modellar asosida shakllantirish 3

Набиев Шухрат Ахмаджанович

Формирование речевых компетенций по русскому языку на основе грамматических моделей у студентов узбекских групп нефилологических направлений 25

Nabiev Shukhrat Akhmadjanovich

Formation of speech competences in the Russian language based on grammatical models in studens of Uzbek groups of non-philological directions... 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

NABIYEV SHUXRAT AXMADJANOVICH

**NOFILOLOGIK YO'NALISHDAGI O'ZBEK GURUHLAR
TALABALARIDA RUS TILI BO'YICHA NUTQ KOMPETENSIYALARINI
GRAMMATIK MODELLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Ped1981 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (rus, o‘zbek, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Lisakova Irina Pavlovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Alimsaidova Sayyora Amideyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Nishonov Maxmudjon Sobirovich
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “13” noyabr kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01, faks: (+99869) 234-85-02, e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2085 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “31” oktabr kuni tarqatildi.
(2025-yil “31” oktabr dagi 2 -raqamli reestr bayonnomasi).



T. Fayzullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlari doktori, professor

B.M. Abduraxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O‘.M. Askarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda, globallashuv va hayotning barcha sohalarini axborotlashtirish jarayonlari sharoitida chet tillarini, shu jumladan rus tilini chet tili sifatida o'rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Rus tilini chet tili sifatida o'qitish metodikasi bo'yicha nazariy tadqiqotlar Yevropa, Amerika va Osiyo mamlakatlarining ko'plab ilmiy tadqiqot markazlarida olib borilmoqda. Xususan, YUNESKOning 2030-yilgacha ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi doirasida Yevropa standartlari asosida chet tillarini biladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan loyihalari muntazam ravishda rivojlanib bormoqda. Strukturaviy lingvistikaning chet tillarini o'qitish metodikasidagi mavqeyi mustahkamlanib bormoqda, mazkur holat tilshunoslikning rasmiy metatildan foydalanadigan pedagogik texnologiyalarning o'sishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Dunyo miqyosida rus tilini xorijiy til sifatida o'qitish metodikasi muammolari bo'yicha A.I. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti, P. Lumumba nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti, Amur davlat universiteti, Tomsk politexnika instituti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, M. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, A.S. Pushkin nomidagi davlat rus tili instituti kabi ilmiy va ta'lim markazlarida bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Rus tilini chet tili sifatida o'qitish metodikasi paradigmasi MDH mamlakatlarida faol rivojlanmoqda, zero dunyoning ushbu mintaqasida rus tilini millatlararo aloqa vositasi sifatida tutgan o'рни saqlanib qolmoqda. Bu esa rus tilini ona tili bo'lmagan til sifatida o'qitishning boy an'analarini davom ettirmoqda va shu bilan birga maqsadlarni belgilash hamda o'quv sharoitlariga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-madaniy omillarning o'zgarishini hisobga olgan holda jadal modernizatsiya qilihmoqda.

O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, yangi Davlat ta'lim standartlari, shuningdek, rus tilini chet tili sifatida o'qitish bo'yicha Milliy o'quv dasturining joriy etilishi natijasida rus tilini ona tili sifatida o'qitishning an'anaviy paradigmasidan rus tilini chet tili sifatida o'qitish paradigmasiga o'tish amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlariga bagishlangan videoselektor yig'ilishida ta'kidlaganidek, "Xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi"¹. Mazkur maqsadga erishishdagi muhim omillardan biri – xorijiy tillarni o'zlashtirishni rag'batlantirish tizimini joriy etish bo'lib, O'zbekistonda til o'rganishni ommalashtirish jarayonini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan 2022-yil 11-mayda qabul qilingan №PF-134-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Maktab ta'limi milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonda o'z ifodasini topgan. Rus tilida nutq kompetensiyalarini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yilning 6-mayidagi chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlariga bagishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqi. (Elektron resurs) – URL: <https://president.uz/ru/lists/view/4327>. Murojaat sanasi: 09.01.2024.

shakllantirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan yana bir muhim omil – bu ta'lim mazmunining amaliyotga yo'naltirilgan qismini rivojlantirish, ya'ni ta'limning kommunikativ yo'nalishini belgilashdir. O'z navbatida, bu chet tilidagi nutqni o'zlashtirishning generativ va kognitiv mexanizmlarini faollashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonli «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari; 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-sonli «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda faol ishtirok etishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli «O'zbekistonda chet tillarni o'rganishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-sonli «Yoshlarni chet tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-maydagi 174-sonli «Oliy ta'lim tizimi uchun xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlarni xarid qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli «Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitish sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 10-oktyabrdagi 816-sonli «Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida»gi qarorlari, shuningdek ushbu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish dasturining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablarda rus tilini o'qitishga oid keng ko'lamdagi masalalar, grammatikani o'rganish bilan bog'liq nutqni rivojlantirish, kompetentli yondashuv asosida o'qitish V.V. Andriyanova, talabalarning nutq madaniyatini shakllantirishda kompetentlik yondashuvi Y.A. Lagay, ruscha-o'zbekcha va o'zbekcha-ruscha tillararo interferensiya muammolari M.D. Djusupovlar tomonidan o'rganilgan, rus tili va adabiyotini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari L.T. Axmedova, rus tilini va tillararo o'zaro ta'sirlarni o'rganishning lingvodidaktik asoslari D.U. Xashimova, rus tili leksikasini o'qitishga oid masalalar M.X. To'xtaxo'jayeva, ta'lim o'zbek

va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda rus tilini o'qitish metodikasi F.A. Gabdulxakov, milliy guruhlardagi talabalarda bog'langan nutqni rivojlantirish masalalari N.Z. Uluxo'jayev, akademik litseylarda tahsil olayotgan o'zbek guruhlar talabalarida orfografik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan kommunikativ yondashuv S.N. Abdullayeva, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish usullari A.B. Raxmonov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Rus tilini xorijiy va ona tili bo'lmagan til sifatida o'qitish masalalari MDH davlatlarining ko'plab olimlari tomonidan ham keng o'rganilgan. Xususan, Y.I. Passov kommunikativ metodika asosida chet tilida muloqotga o'rgatishning asosiy muammolarini tahlil qilgan, O.D. Mitrofanova ta'lim mazmunini modellashtirish nazariyasi va rus tilini chet tili sifatida o'qitishda o'quvchilarning ona tilini hisobga olish masalalarini ishlab chiqqan, A.N. Shukin, I.P. Lisakoalar rus tilini chet tili sifatida o'qitishda lingvodidaktik asoslar va tizimli yondashuvni rivojlantirgan, rus tilini chet tili sifatida o'qitish metodikasining umumiy masalalarini ko'rib chiqqan, I.Y. Bobrisheva rus tilini chet tili sifatida o'qitishda chet ellik o'quvchilarning ta'limiy-axborot faoliyatidagi madaniy-tipologik uslubni ishlab chiqqan, T.M. Balixina bilingv o'quvchilarni rus tilida og'zaki va yozma muloqotga o'rgatish jarayoni qonuniyatlarini o'rgangan, T.I. Kapitonova rus tilini xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llanilayotgan metod va texnologiyalarni tahlil qilgan, Y.V. Mixaleva rus tilini chet tili sifatida elementar darajada o'zlashtirishning nazariy jihatlarini yoritgan, N.L. Fedotova rus tilini chet tili sifatida o'qitishdagi metodik usullar va nazariy bilimlarni o'quv materiallari tayyorlashda qo'llash masalalarini tahlil qilgan, M.E. Paretskaya nofilolog talabalarining barcha nutqiy faoliyat turlarida, xususan, ilmiy-ta'lim va ijtimoiy-madaniy sohalarda kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish masalalarini yoritgan, V.V. Molchanovskiy rus tilini xorijiy til sifatida o'rgatuvchi o'qituvchining kompleks, detallashtirilgan, motivatsiyalashtirilgan tizimli-faoliyat modelini ishlab chiqqan, L.V. Moskovkin zamonaviy metodika kontekstida chet tilini o'qitishda innovatsiyalarni qo'llash masalalarini ko'rib chiqqan. Rus tilini chet tili sifatida o'qitishda grammatik modellar va nutq namunalaridan foydalanish muammosining turli jihatlarini V.I. Shlyaxov, V.E.Shtaynberg, Y.R. Korniyenko, U.S. Kalandarov va boshqalarning asarlarida o'z aksini topgan.

Chet tillarni turli darajalarda va bosqichlarda o'qitish metodikasi bo'yicha xorijiy mutaxassislar orasida T. Boven, A. Doff, H. Douglas, J.Harmer, D. Larsen-Friman, S.D. Krashen, D. Nunan, J. Richards, B. Svensen va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Biroq nofilologik yo'nalishlardagi o'zbek guruhlar talabalarida grammatik modellar asosida va rus tilida o'zaro ta'sir o'tkazish ssenariylarining o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda rus tilida nutq kompetensiyalarini shakllantirish metodologiyasini ilmiy asoslash va ishlab chiqishga bag'ishlangan tadqiqot birinchi marta amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat

universiteti Ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Zamonaviy ta’lim paradigmalari sharoitida rus tilini chet tili sifatida o’qitish uslublari va texnologiyalari” bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nofilologik yo’nalishdagi o’zbek guruhlar talabalarida rus tili bo’yicha nutq kompetensiyalarini grammatik modellar asosida shakllantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nofilologik yo’nalishdagi o’zbek guruhlar talabalarida rus tili bo’yicha nutq kompetensiyalarini takomillashtirish maqsadida so’z birikmalari va gaplarning grammatik modellari tizimini ishlab chiqish;

rus va o’zbek tillarining morfologiyasi hamda sintaksisini bakalavriatning nofilologik yo’nalishlari o’quv dasturi hajmidan kelib chiqqan holda qiyosiy tahlil qilish;

nofilologik yo’nalishdagi talabalarga rus tilini chet tili sifatida o’qitish uchun “Invariant” sintaktik grammatik modellar asosida topshiriqlar va mashqlar tizimini ishlab chiqish;

nutq kompetensiyalarini shakllantirish modelini ishlab chiqish va nofilologik yo’nalishdagi o’zbek guruhlar talabalarida rus tili bo’yicha nutq kompetensiyalarini shakllashtirish uchun grammatik modellardan foydalanish bo’yicha uslubiy tavsiyalar yaratish.

Tadqiqotning obykti nofilologik yo’nalishdagi o’zbek guruhlar talabalarida rus tili bo’yicha nutq kompetensiyalarini grammatik modellar asosida shakllantirish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini nofilologik yo’nalishdagi o’zbek guruhlar talabalarida rus tili bo’yicha nutq kompetensiyalarini grammatik modellar asosida shakllantirish mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida qo’yilgan vazifalarni hal qilish uchun pedagogik kuzatuv, test sinovi va so’rovnoma kabi diagnostik tadqiqot usullari, transformatsion tadqiqot usuli sifatida o’quv eksperimenti usuli, rus va o’zbek tillarining kontrastiv xususiyatlarini aniqlashda formal taqqoslashning lingvistik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nofilologik yo’nalishdagi o’zbek guruhlar talabalarida rus tili bo’yicha nutq kompetensiyalarini rivojlantirish uchun atributiv, obyekt, hol bilan ifodalangan, kompletiv munosabatlardagi so’z birikmalari hamda subyekt-predikat, obyekt, aniqlovchi va hol bilan ifodalangan gaplarning grammatik modellari tizimi grammatik ma’nolarning invariantlarini izohlovchi shartli sxemaviy-belgili modellardan foydalanish asosida ishlab chiqilgan;

bakalavriatning nofilologik yo’nalishlarida interferensiyaga olib keluvchi omillarni o’quv dasturi bilan bog’liq holda rus-o’zbek tillari morfologiyasi va sintaksisini o’zaro qiyoslash orqali bog’langan qo’shma gaplarni modellashtirishni o’rgatish jarayonlarining shakllangan nutqiy kompetensiyani yanada rivojlantirish usullari individual, umumiy, o’zaro bahs va nazariy, ilmiy-amaliy innovatsion texnologiyalari aniqlangan;

nofilologik yoʻnalishdagi talabalarga rus tilini chet tili sifatida oʻqitishni yanada rivojlantirish va ilmiy-amaliy pedagogik asoslarni boyitish uchun “Invariant” sintaktik grammatik modellarning analitik, sintetik, konstruktiv topshiriqlar va mashqlar tizimi, amaliy sinovlardan oʻtkazilgan holda, qoʻllanmaviy dasturlari ishlab chiqilgan;

oʻqitishning ongli-amaliy usuli texnologiyalariga ilmiy-amaliy jihatdan yangi pedtexnologiyalarni kiritish asosida nutq kompetensiyalarini shakllantirish modeli takomillashtirilgan hamda nofilologik yoʻnalishdagi oʻzbek guruhlar talabalarining rus tilidagi nutq kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini samarali amalga oshirishga yoʻnaltirilgan grammatik modellardan foydalanishning zamonaviy uslubiy tavsiyalari ishlab chiqilgan va huquqiy asoslar orqali amaliyotga tavsiya etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nofilologik yoʻnalishdagi oʻzbek guruhlar talabalarida rus tili boʻyicha nutq kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini mavjud uslubiy taʼminotining xususiyatlari tizimlashtirilgan;

nofilologik yoʻnalishdagi oʻzbek guruhlar talabalarida rus tili boʻyicha nutq kompetensiyalarini shakllantirish uchun “Invariant” mashqlar toʻplami uslubiy qoʻllanma sifatida ishlab chiqilgan (DGU №50166 “Nofilologik yoʻnalishlar talabalarida rus tili boʻyicha nutq kompetensiyalarini shakllantirish uchun sintaktik grammatik modellar asosida topshiriqlar va mashqlar tizimi”);

nofilologik yoʻnalishdagi oʻzbek guruhlar talabalarida rus tili boʻyicha nutq kompetensiyalarini shakllantirish jarayonining uslubiy taʼminoti takomillashtirilgan;

nofilologik yoʻnalishdagi oʻzbek guruhlar talabalarida rus tili boʻyicha nutq kompetensiyalarini takomillashtirish maqsadida tajriba-sinov ishlari oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qoʻllanilgan yondashuvlar va usullarning ilmiy-uslubiy asoslanganligi, nazariy maʼlumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, matematik statistika usullari yordamida olingan tajriba-sinov ishi natijalarining toʻgʻriligi, takliflarni amaliyotga joriy etish va olingan natijalarni vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** nofilologik yoʻnalishdagi oʻzbek guruhlar talabalarida rus tili boʻyicha nutq kompetensiyalarini shakllantirishning lingvistik, lingvodidaktik va psixologik jihatlarini yoritish bilan belgilanadi. Tadqiqot ishi rus tilini chet tili sifatida oʻqitish metodikasining nazariy asoslarini rivojlantirishga hissa qoʻshadi, talabalarda til koʻnikmalarini shakllantirish uchun asos sifatida grammatik modellardan foydalanish samaradorligini asoslaydi (soʻz birikmasi, sodda va murakkab gaplar darajasida). Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan uslubiy yondashuvlar va tavsiyalar Oʻzbekiston OTMlarida rus tilini chet tili sifatida oʻqitish mazmuni va texnologiyalarini takomillashtirish uchun ishlatilishi mumkin, bu esa ushbu tadqiqotni nazariy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqotning **amaliy ahamiyati** Oʻzbekiston OTMlari sharoitida nofilologik yoʻnalishdagi oʻzbek guruhlar talabalarini uchun grammatik modellar

asosida rus tilida nutq kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha topshiriq va mashqlar tizimi takomillashtirilganligi bilan belgilanadi. O'quv jarayoniga grammatik modellarni kiritish o'quv va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun zarur bo'lgan sintaktik ko'nikmalar va nutq qobiliyatlarini maqsadli shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari nofilologik yo'nalishdagi talabalar uchun rus tili bo'yicha o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalarini yaratish hamda amaliy mashg'ulotlarni modellashtirishda ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, taklif etilayotgan yondashuvlar o'qituvchilarning malakasini oshirish va qo'shimcha o'quv kurslarini tashkil etish uchun moslashtirilishi mumkin, bu esa olingan ma'lumotlarni oliy ta'lim tizimida amalda qo'llash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nofilologik yo'nalishdagi o'zbek guruhlar talabalariga rus tilini grammatik modellar asosida o'qitishda nutq kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy va amaliy natijalar asosida quyidagilar bajarildi:

nofilologik yo'nalishdagi o'zbek guruhlar talabalarida rus tili bo'yicha nutq kompetensiyalarini rivojlantirish uchun atributiv, obyekt, hol bilan ifodalangan, kompletiv munosabatlardagi so'z birikmalari hamda subyekt-predikat, obyekt, aniqlovchi va hol bilan ifodalangan gaplarning grammatik modellari tizimi grammatik ma'nolarning invariantlarini izohlovchi shartli sxemaviy-belgili modellardan foydalanish asosida ishlab chiqishga oid tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan "O'zbek (rus) tili" fanining o'quv dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 7-maydagi 02/01-01-163-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'quv dasturlarining mazmuni grammatik modellardan foydalangan holda darslarni o'tkazishni ta'minlaydigan mavzular bilan boyitildi;

bakalavriatning nofilologik yo'nalishlarida interferensiyaga olib keluvchi omillarni o'quv dasturi bilan bog'liq holda rus-o'zbek tillari morfologiyasi va sintaksisini o'zaro qiyoslash orqali bog'langan qo'shma gaplarni modellashtirishni o'rgatish jarayonlarining shakllangan nutqiy kompetensiyani yanada rivojlantirish usullari individual, umumiy, o'zaro bahs va nazariy, ilmiy-amaliy innovatsion texnologiyalari aniqlanganligiga oid takliflardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan IL-402104209 sonli "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" nomli innovatsion loyiha doirasida foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 22-apreldagi 01/4-1557 sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning mazmuni o'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi bo'yicha ma'lumotlar bilan mukammallashtirildi;

nofilologik yo'nalishdagi talabalarga rus tilini chet tili sifatida o'qitishni yanada rivojlantirish va ilmiy-amaliy pedagogik asoslarni boyitish uchun "Invariant" sintaktik grammatik modellarning analitik, sintetik, konstruktiv

topshiriqlar va mashqlar tizimi, amaliy sinovlardan o'tkazilgan holda, "Invariant" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (ISBN 978-5-907871-93-9. Ш.А.Набиев. Инвариант. Система заданий и упражнений на основе синтаксических грамматических моделей для обучения русскому языку как иностранному студентов нефилологических направлений: учебное пособие. – Санкт-Петербург: Златоуст, 2025. – 72 с.). Natijada o'quv qo'llanmaning mazmuni muhim grammatik modellar va mashqlar bilan takomillashtirildi;

o'qitishning ongli-amaliy usuli texnologiyalariga ilmiy-amaliy jihatdan yangi pedtexnologiyalarni kiritish asosida nutq kompetensiyalarini shakllantirish modelini takomillashtirishga hamda nofilologik yo'nalishdagi o'zbek guruhlar talabalarining rus tilidagi nutq kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan grammatik modellardan foydalanishning zamonaviy uslubiy tavsiyalarini ishlab chiqishga oid takliflardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanali "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbekiston yoshlari", "Bolalar va biz" nomli teledasturlarni tayyorlashda ssenariylar doirasida foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasining 2025-yil 6-maydagi 05-09-599-sonli ma'lumotnomasi). Natijada teleko'rsatuvlar mazmuni O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida rus tilini chet tili sifatida o'rganish muammolari bo'yicha yangi talqinlar va ekspert baholari bilan boyitildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shulardan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Rus tilini chet tili sifatida o'qitishda grammatik modellardan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida turli toifadagi grammatik modellardan foydalanish muammosiga

bag'ishlangan zamonaviy ilmiy-uslubiy adabiyotlar, rus tilini o'qitishda grammatik modellardan foydalanishning psixologik va pedagogik asoslari, rus tilidagi so'z birikmalari, sodda va murakkab gaplarning grammatik modellari nutqning o'zaro ta'sir etuvchi ssenariylarining o'zgaruvchanligi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Rus tilini chet tili sifatida o'qitish jarayonida til modellaridan yoki namunaviy modellardan foydalanish tajribasi strukturaviy tilshunoslikning yutuqlari va tilni tizimli ta'lim sifatida tavsiflashga formal-grammatik yondashuv an'alariga asoslanadi.

Ramziy tasvirdagi namunaviy modellar quyidagicha ko'rib chiqiladi: 1) obyektни almashtirish; 2) kvaziobyektlar². Shuni ta'kidlash kerakki, dastlab bunday «kvaziobyektlar» XX-XXI asrlarda nafaqat lingvistik, balki falsafiy ta'limotlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan lingvistik strukturalizmning ko'plab jiddiy vakillari asarlarida tadqiqot predmetini shakllantirgan.

O'zbekistonning zamonaviy tilshunosligi hozirgi kunda turli darajadagi filologik ta'lim vazifalariga moslashtirilgan shaklda asosan strukturalizm an'alarini meros qilib olganini ko'rish qiyin emas. Hech bo'lmaganda, strukturalizm rivojlangan tilning variant-invariant tuzilishi g'oyalari o'rta maktab va oliy ta'lim muassasalari uchun rus tilining o'quv dasturlarida bevosita aks ettirilgan.

Sxematik va ramziy modellarni tuzishning muhim parametri qulaylik mezonidan foydalanishdir. Talabalarning grammatik modellarni tushunishi uchun qulaylik ularni tushuntirish uchun ishlatiladigan grafik vositalarni sinchkovlik bilan tekshirilgan, aniq, to'g'ri tanlash orqali erishiladi. Bundan tashqari, tanlangan grafik vositalar (formulalar, qisqartmalar, geometrik shakllar, grafik belgilar va boshqalar) standartlashtirilishi va haddan tashqari xilma-xilligi bilan ajralib turmasligi kerak. Bundan tashqari, ularning mumkin bo'lgan kombinatsiyalari soni cheksiz bo'lishi mumkin. Grammatik modellarning metatili juda sodda bo'lishi kerak va ularni yodlashda qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirmasligi kerak.

Talabalarning nazariy grammatikaga bo'lgan qiziqishi minimal bo'lgan sharoitda modellashtirish o'quv materialini tuzishga va uni qabul qilishni osonlashtirishga yordam beradi. Klip fikrlash elementlari ham o'quv kontentini idrok etishga ta'sir qiladi va o'quv vositalarini iloji boricha ko'rish apparati yordamida qabul qilishni talab qiladi. Grammatik modellar nofilologik yo'nalish talabalari uchun lingvistik kompetensiyani shakllantirish bo'yicha muhim vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Ular mavhum grammatik qoidalar va aniq nutq birliklari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash orqali tilni tizim sifatida tushunishga yordam beradi.

Sxematik va ramziy grammatik modellardan foydalanish dastlab zamonaviy pedagogik hamjamiyat tomonidan ma'nan eskirgan deb tan

² Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов и понятий. – Изд. 6-е, испр. и доп. – Назрань: Пилигрим, 2016. – С. 240.

olinadigan grammatik-tarjima usuliga xos bo'lganiga qaramay, bugungi kunda uning qisman «tiklanishi» o'ta dolzarblikka ega. Bu dolzarblik O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim sharoitida rus tilini chet tili sifatida o'qitish jarayonida kuzatiladigan psixologik omillar bilan chambarchas bog'liq. Ushbu psixologik omillardan biri zamonaviy o'rta maktab tomonidan shakllantiriladigan o'ng yarim sharda fikrlashning ustunligi hisoblanadi.

Gap shundaki, O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'limning barcha bosqichlarida rus tilini chet tili sifatida o'qitish uchun lingvodidaktik materiallarni ishlab chiqish jarayonlari tobora ko'proq talabalar o'rtasida o'ng yarim sharda fikrlashni rivojlantirishga qaratilmoqda. O'ng yarim sharda fikrlash, biz bilganimizdek, xayoliy, hissiy-emotsional va ijodiy hisoblanadi. Bu sabab-natija munosabatlarini izchil o'rnatish, ramzlar, sxemalarda o'ylash, mantiqiy va batafsil mulohaza yuritish istagi bilan ajralib turadigan chap yarim sharda fikrlashdan farq qiladi. A.L. Sirotyukning qayd etishicha, «chap yarim sharning ustunligi bilish jarayonlarining og'zaki-mantiqiy xususiyati, mavhumlashtirish va umumlashtirishga moyillik <natijasiga ega> (chap yarim sharli odamlar); o'ng yarim sharning ustunligi – aniq-obrazli fikrlash, rivojlangan tasavvur (o'ng yarim sharli odamlar), yarim sharlardan birining aniq ifodalangan ustunligining mavjud emasligi (teng yarim sharli odamlar)³. Amalda bu, xususan, «o'ng yarim shar» odamlarning kengaytirilgan matnlarga moyilligini zaiflashtirishni, ularni yorqin, xayoliy ma'lumot belgilariga jalb qilishni anglatadi. Ko'rinib turibdiki, u yoki bu fikrlash turiga moyillik insonning tug'ma qobiliyatlari qatoriga tegishli, masalan, chapaqaylik. Shu bilan birga, egallangan bilish kompetensiyalari ham ma'lum bir fikrlash turining ustunligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, bu asosan tashqi omillarga, ya'ni shaxsning ma'lumot olish shakllari va hajmlariga bog'liq. U yoki bu ma'lumotni taqdim etish asosan nutqning o'zaro ta'sir etuvchi ssenariysi bo'yicha amalga oshiriladi.

Ssenariy tushunchasi kognitiv tilshunoslikda paydo bo'lgan va asta-sekin lingvistik siklning ko'plab zamonaviy fanlarida – psixolingvistika, metalingvistika, lingvokulturologiya va boshqalarda o'z o'rnini egallamoqda. So'nggi yigirma yil ichida u lingvodidaktika uchun ham tobora maqbul bo'lib qoldi. Bu fanlarning barchasida «ssenariy» atamasi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lmoqda, lekin ayni paytda uning kognitiv tilshunoslik doirasida paydo bo'lgan asl ma'nosi bilan barqaror aloqasi bo'lib, unda ssenariy konseptlar turlaridan biri sifatida qaraladi.

“Ssenariy, bir tomondan, uzoq muddatli xotirada saqlanadigan nutq xatti-harakatlarining ixchamlashtirilgan kognitiv modeli (sxemasi), boshqa tomondan, bu suhbatdoshlar tomonidan ushbu modelni og'zaki ravishda amalda qo'llashdir. Ssenariylarni o'rganishdagi asosiy qiyinchilik shundaki, sxemani to'la qonli og'zaki

³ Сиротюк А.Л. Обучение детей с учетом психофизиологии: Практическое руководство для учителей и родителей. – М.: ТЦ Сфера, 2001. – С. 14

ishga aylantirish va uni suhbatdoshlar tomonidan tushunish, qoida tariqasida, ong ishtirokisiz avtomatik ravishda sodir bo‘ladi”⁴.

Nutqning o‘zaro ta’sir etuvchi ssenariysining muhim xususiyatlaridan biri, bizning fikrimizcha, uning o‘zgaruvchanligidir. Nutqning o‘zaro ta’sir etuvchi ssenariysi o‘zgaruvchan bo‘lishi kerak va bu o‘zgaruvchanlik o‘z-o‘zidan rivojlana olmaydi, aksincha, u til modellarining ichida dasturlanishi kerak. Ssenariyning faqat ba’zi elementlari o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkinligini ta’kidlab o‘tish zarur.

Dissertatsiyaning **«Nofilologik yo‘nalishdagi o‘zbek guruhlar talabalarida rus tili bo‘yicha nutq kompetensiyalarini grammatik modellar asosida shakllantirish metodikasi»** deb nomlangan ikkinchi bobida rus tili kurslarining normativ hujjatlari va o‘quv-uslubiy ta’minoti, rus va o‘zbek tillari o‘rganilayotgan mavzu jihatidan qiyosiy tahlil qilindi, shuningdek sintaktik grammatik modellarga asoslangan topshiriqlar va mashqlar tizimi ishlab chiqilgan.

Mamlakatimiz universitetlarida rus tilini chet sifatida o‘qitish nazariyasi va amaliyoti uchun muhim voqea 2021-yilda «Rus tili (chet tili sifatida) bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim Milliy o‘quv dasturi»⁵ning tasdiqlanishi bo‘ldi. Mazkur hujjat tarkibiga “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida rus tilini chet tili sifatida o‘qitish konsepsiyasi” va “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari uchun rus tilini chet tili sifatida o‘qitish Milliy o‘quv dasturi”⁶ kiritilgan. Buni ushbu Konsepsiyada rus tilini chet tili sifatida o‘qitish vazifalari orasida «rus tilining grammatik va stilistik tizimini funksional o‘zlashtirishga va talabalarning og‘zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyani shakllantirish»⁷ ham belgilanganligi tasdiqlaydi. Biroq O‘zbekistondagi OTMLlarda rus tili kurslarini o‘quv-uslubiy ta’minoti uchun grammatik modellarning tizimli qo‘llanilishi kuzatilmaydi. Bu shuni anglatadiki, hozirgi vaqtda nofilologik yo‘nalishdagi o‘zbek guruhlar talabalarida rus tilida nutq kompetensiyalarini takomillashtirish uchun sintaktik grammatik modellar tizimini, shuningdek, ularga asoslangan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish zarurati mavjud.

Biroq, sintaktik grammatik modellar tizimini ishlab chiqishdan avval talabalarning o‘rganayotgan va ona tillari xususiyatlarini e’tiborga olish lozim. Shundan kelib chiqqan holda, olib borilgan tadqiqot doirasida, uning aniq vazifalarini hisobga olib, rus va o‘zbek tillarining grammatik tuzilishini qiyoslash maqsadga muvofiqdir. Shu munosabat bilan ta’kidlash kerakki, rus va o‘zbek tillari o‘rtasidagi ko‘plab farqlar sintaktik aspektda namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida gaplar, rus tilidagi kabi, ularning tuzilishi jihatidan sodda (yig‘iq, yoyiq, murakkablashgan) va qo‘shma (bog‘langan va

⁴ Шляхов В.И. Сценарии русского речевого взаимодействия в теории и практике преподавания русского языка иностранцам: Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. – М., 2009. – С. 3-4.

⁵ Национальная учебная программа непрерывного образования Республики Узбекистан по русскому языку (как иностранному). – Ташкент, 2021. – 192 с.

⁶ Национальная учебная программа непрерывного образования Республики Узбекистан по русскому языку (как иностранному). – Ташкент, 2021. – С. 27.

⁷ Национальная учебная программа непрерывного образования Республики Узбекистан по русскому языку (как иностранному). – Ташкент, 2021. – С. 28.

ergashgan)ga bo‘linadi. O‘zbek tilidagi gap uchun gapping to‘liqligi/to‘liq emasligi toifasi ham muhim hisoblanadi.

O‘zbek tilida ishlatiladigan bog‘lovchilarning semantikasini hisobga olgan holda bog‘langan qo‘shma gaplar tipologiyasi, umuman olganda, rus tilidagi bog‘langan qo‘shma gaplar tipologiyasiga mos keladi. Shunday qilib, ularga biriktiruv (*va* (и), *-da* (и), *ham* (тоже), *hamda* (также), *bilan* (с), *bo‘lsa* (если, ...то) bog‘lovchilari), zidlov (*ammo* (однако), *lekin* (но), *biroq* (но, однако), *balki* (тем не менее) bog‘lovchilari), ayiruv (*yo* (или, или же, либо), *yoki* (или, или же, либо), *yoхуд* (книж. или), *yoinki* (или же) bog‘lovchilari), inkor (*na...na* (ни..., ни) bog‘lovchilari) munosabatlari xosdir.

O‘zbek tilidagi ergashgan qo‘shma gaplar tipologiyasi ham rus tilidagi ergashgan qo‘shma gaplar tipologiyasiga mos keladi. U 1) sabab munosabatlari (*chunki* (потому что, так как, ибо), *shuning uchun* (поэтому), *shu sababli* (по этой причине), *shu vajdan* (в силу этого)); 2) maqsad munosabatlari (*toki* (чтобы, дабы) bog‘lovchisi); 3) shart munosabatlari (*agar* (если), *agarda* (если) bog‘lovchilari); 4) to‘siqsizlik munosabatlari (*garchi* (хотя, даже, если), *garchand* (хотя, даже, если) bog‘lovchilari); 5) chog‘ishtiruv munosabatlarini (*go‘yo // go‘yoki* (якобы, будто бы, будто, словно, как бы) bog‘lovchisi) izohlaydigan ergashtiruvchi bog‘lovchilarning semantikasi va sintagmatikasi bilan belgilanadi.


Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, tadqiqot davomida «Invariant» deb nomlangan topshiriqlar va mashqlar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu ishlanma rus tilida nutq kompetensiyasini takomillashtirish maqsadida talabalar uchun tarqatma material sifatida foydalanishga mo‘ljallangan bo‘lib, 39 ta uslubiy ishlanmalarni o‘z ichiga oladi. Mazkur ishlanma tarkibiga kiritilgan barcha mashqlarni quyidagi uch guruhga bo‘lish mumkin: 1. Talabalarda sintaktik me‘yor bo‘yicha tushuncha hosil qilish uchun mashqlar. 2. Talabalarning sintaktik konstruksiyalarni to‘g‘ri tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha mashqlar (so‘z birikmalari, sodda gaplar, murakkab gaplar). 3. Sintaktik xatolarni topish, tasniflash va tuzatishga qaratilgan mashqlar.

“Invariant” topshiriqlar va mashqlar tizimi mustaqil ta‘lim uchun ajratilgan soatlarni bajarish davomida qo‘llaniladi. Undan foydalanishda ongli-amaliy o‘qitish metodi (ОАО‘М) usullarini qo‘llash eng maqbul yo‘l hisoblanadi.

ОАО‘М, birinchi navbatda, bizning oldimizda turgan didaktik vazifalarga to‘liq mos keladigan lingvistik jihatni o‘rganishda ongli yondashuvga asoslangan. Bundan tashqari, ОАО‘М metodida gap o‘qitishning minimal birligi sifatida tan olinishi, grammatika bo‘yicha mashg‘ulotlarning asosini esa sintaktik grammatik modellarga o‘xshash narsalar tashkil etishi bizni hayratda qoldirdi.

Leksik-grammatik materialni taqdim etish va joylashtirishda ОАО‘М metodi tomonidan nazarda tutilgan konsentrizm, shuningdek, o‘rganilayotgan til materiallari hajmining qat’iy cheklanishi ajratilgan vaqt oralig‘iga (odatda bir semestr) rioya qilish ehtiyojlariga to‘liq javob beradi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi bizga nofilologik yo‘nalishdagi o‘zbek guruhlar talabalarida grammatik modellar asosida rus tilida nutq kompetensiyalarini shakllantirishning quyidagi modelini ishlab chiqish va taklif qilish imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Nofilologik yoʻnalishdagi oʻzbek guruhlar talabalarida grammatik modellar asosida rus tilida nutq kompetensiyalarini shakllantirish modeli

Ushbu modelning mazmuniga ko'ra, nofilologik yo'nalishdagi o'zbek guruhlar talabalarida grammatik modellar asosida rus tilida nutq kompetensiyalarini shakllantirish nofilologik yo'nalishdagi o'zbek guruhlar talabalariga rus tilini chet tili sifatida o'qitish uchun "Invariant" sintaktik modellar asosida topshiriqlar va mashqlar tizimidan foydalangan holda, shuningdek, OAO'M metodiga tayangan holda amalga oshiriladi.

Ushbu o'quv modelining *maqsad bloki* nofilologik yo'nalishdagi o'zbek guruhlar talabalarida grammatik modellar asosida rus tilida nutq kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini takomillashtirish zarurligidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni bajarishni nazarda tutadi: 1) sintaktik grammatik modellar tizimini ishlab chiqish; 2) "Invariant" mashqlar tizimini ishlab chiqish; 3) OAO'M metodi asosida rus tilida nutq kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish.

Protsessual blok shakllangan kompetensiyalarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Bularga til va nutq kompetensiyalari kiradi. Tuzilgan o'quv modelining protsessual bloki mazmuni grammatik modellar asosida rus tilida nutq kompetensiyalarini shakllantirish shakllari, usullari va vositalaridan iborat.

Tashkiliy-faoliyat bloki nofilologik yo'nalishdagi talabalarga rus tili grammatikasini o'qitishda biz qo'llagan yondashuvlarni aks ettiradi. Ular orasida rus tilining sintaksisini tilning qattiq tuzilgan quyi tizimi sifatida talqin etishdan iborat bo'lgan struktural-semantik yondashuv mavjud. Shuningdek, taklif etilayotgan metodika doirasida grammatikani o'qitishga aniq yondashuv amalga oshirildi, bu grammatik qoidalar va hodisalarni tushuntirishdan iborat (qoidalarni yodlashni nazarda tutmaydigan yashirin yondashuvdan farqli o'laroq). Va nihoyat, biz uchun grammatikani o'qitishda deduktiv yondashuv katta ahamiyatga ega bo'lib, unda talabalarga eslab qolishlari kerak bo'lgan grammatik qoidalar va misollar beriladi, undan so'ng esa ushbu qoidalarni amalda qo'llash vazifasi beriladi. Tashkiliy-faoliyat bloki shuningdek, grammatik modellar asosida rus tilida nutq kompetensiyalarini shakllantirish tarkibiy qismlari (bosqichlari) tavsifini o'z ichiga oladi. Bularga quyidagilar kiradi: 1) grammatik modelni idrok etish; 2) grammatik shakllarni tuzishda o'xshashlik mexanizmini shakllantirish; 3) grammatik modeldan foydalanish mahoratini mustahkamlash; 4) modeldan maqsadli alohida foydalanish.

Ishlab chiqilgan modelning *natija-baholash bloki* sintaktik grammatik modellar asosida nutq kompetensiyalarini shakllanganlik mezonlarini o'zida aks ettiradi. Grammatik kompetensiyani shakllanganlik ko'rsatkichlari kognitiv, operatsion-faoliyatga yo'naltirilgan, motivatsion va refleksiv mezonlardir. Kognitiv mezon rus tilining sintaksisi bo'yicha singdirilgan bilimlarning hajmi va xususiyatini hisobga oladi. Operatsion-faoliyatga yo'naltirilgan mezon sintaksis bo'yicha bilimlarga asoslangan nutq ko'nikmalarining umumiyligini aks ettiradi. Motivatsion mezon sintaktik grammatik modellarni o'rganish orqali rus tili grammatikasi bo'yicha bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishga qiziqish bildirishni o'z ichiga oladi. Va nihoyat, refleksiv mezon talabaning sintaktik grammatik modellar tizimidan foydalangan holda mustaqil ta'lim natijalarini baholashini o'z ichiga oladi.

Ushbu o'quv modelini amalda qo'llash natijasida nofilologik yo'nalishdagi o'zbek guruhlar talabalarida grammatik modellar asosida rus tilida nutq kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni takomillashishi kerak.

Nofilologik yo'nalishdagi o'zbek guruhlar talabalarida grammatik modellar asosida rus tilida nutq kompetensiyalarini shakllantirish modeli nofilologik yo'nalishdagi o'zbek guruhlar talabalarida grammatik modellar asosida rus tilida nutq kompetensiyalarini takomillashtirishga qaratilgan tajriba-sinov asosida o'qitish jarayonida qo'llanildi.

Dissertatsiyaning «**Nofilologik yo'nalishdagi o'zbek guruhlar talabalarida rus tilida nutq kompetensiyalarini grammatik modellar asosida shakllantirish bo'yicha tajriba-sinov ishini tashkil etish va o'tkazish**» deb nomlangan uchinchi bobi tajriba-sinov asosida o'qitishning maqsadi, vazifalari, sifat va miqdor ko'rsatkichlari, shuningdek, nofilologik yo'nalishdagi talabalarga rus tilini chet tili sifatida o'qitishda nutq kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha sintaktik grammatik modellardan foydalanish uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishga bag'ishlangan.

O'tkazilgan tajriba-sinov asosida o'qitish uch bosqichdan iborat bo'ldi –

- 1) qidiruv-aniqlash: 2021-yilning sentyabri – 2022-yilning sentyabri;
- 2) shakllantiruvchi: 2022-yilning sentyabri – 2023-yilning iyuni;
- 3) nazorat-baholash: 2023-yilning mayi – 2023-yilning sentyabri.

2022-2023 o'quv yilining sentyabr oyida aniqlovchi bosqich o'tkazildi. Unda O'zbekistonning uchta turli oliy o'quv yurtlarida 566 nafar birinchi bosqich talabalari ishtirok etishdi, xususan:

Namangan muhandislik-qurilish institutida 60730804 – Yo'l muhandisligi ta'lim yo'nalishining 112 nafar va 60730305 – Qurilish muhandisligi: bino va inshootlar qurilishi ta'lim yo'nalishining 105 nafar talabalari (jami 217 nafar);

Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika institutida 60110600 – Matematika va informatika ta'lim yo'nalishining 156 nafar va 60110700 – Fizika va astronomiya ta'lim yo'nalishining 48 nafar talabalari (jami 204 nafar);

Andijon davlat pedagogika institutida 60110600 – Matematika va informatika ta'lim yo'nalishining 92 nafar va 60110700 – Kimyo ta'lim yo'nalishining 53 nafar talabalari (jami 145 nafar).

Xuddi shu kontingent asosida shakllantirish bosqichida nazorat va tajriba guruhlarini tashkil etildi. Nazorat guruhiga 290 nafar talaba, tajriba guruhiga esa 276 nafar talabalar kiritildi.

Aniqlov va yakuniy bosqichlarning natijalari matematik statistika usullari bilan qayta ishlandi. Bunda O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan nofilologik yo'nalishlarning birinchi bosqich talabalari umumiy soni *bosh jamlama* deb qabul qilindi. Statistik hisob-kitoblarda *tanlanma jamlama* sifatida nazorat va eksperimental guruhlar talabalarining umumiy soni belgilanadi, ya'ni 566 nafar talaba.

Ish jarayonida nofilologik yo'nalishdagi o'zbek guruhlar talabalarida grammatik modellar asosida rus tilida nutq kompetensiyalarini shakllantirishning statistik ko'rsatkichlari umumiy jadvali tuzildi va u 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tajriba-sinov jarayonining boshida va oxirida nofilologik yo‘nalishdagi o‘zbek guruhlar talabalarida grammatik modellar asosida rus tilida nutq kompetensiyalarini shakllantirishning statistik ko‘rsatkichlari umumiy jadvali

№	Mezonlar	Guruhlar	Tajriba guruhi (276 respondent)				Nazorat guruhi (290 respondent)			
			A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz	A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
1	Insho mazmunining e'lon qilingan mavzuga muvofiqi va matnning originalligi	Tajriba yakunida	87	124	41	24	36	86	102	66
		Tajriba boshida	31	76	101	68	29	71	98	92
2	Matn hajmi	Tajriba yakunida	86	120	43	27	34	84	101	71
		Tajriba boshida	30	74	98	74	30	72	94	94
